



## MUSIQA VA TA'LIM: FORTEPIANONING O'QUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI. BOLALAR RIVOJLANISHIDA MUSIQA, PIANINO MASHG'ULOTLARINING FOYDASI

**Nurullayeva Fotima Erkin qizi**

*Navoiy davlat universiteti san'at va sport fakulteti Musiqiy talim yo'nalishi  
1- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqa va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Unda fortepianoning o'quv jarayonidagi ahamiyati hamda pianino mashg'ulotlarining bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ayniqsa musiqa orqali bolalarning tafakkuri xotirasi, ijobiy qobiliyati va ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanish yoritilgan. Tadqiqot natijalarida musiqa ta'limining kognitiv, emotsional va ijtimoiy ruvojlantirishga ijobiy ta'siri asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Musiqa ta'limi, fortepiano, pianino mashg'ulotlari, emotsional rivojlanish, estetik tarbiya, musiqa savodxonligi, diqqat va xotira, pedagogik ahamiyat, musiqa tarbiyasi

**Kirish:** Musiqiy tarbiya insonni guzalikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi. Musiqa go'zallikka intilish, estetik ehtiyoj, tug'ma xislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olam ta'sirida paydo bo'lgan.

Fortepiano ta'limining bolalar musiqa maktablaridagi o'rni muhim ahamiyatga ega. Fortepiano o'qitish nafaqat musiqiy mahoratni rivojlantiradi, balki yosh avlodning umumiy intellektual va emotsional rivojlanishiga, ijobiy fikrlashni shakllantirishga katta yordam beradi. O'zbekistonda bolalar musiqa maktablarida fortepiano ta'limning o'rni va uning yosh avlodni musiqa madaniyati bilan tanishtirishdagi roli tahlil qilinadi. Fortepiano ta'limining pedagogik metodlari, bolalar musiqa maktablarida fortepiano o'qitishdagi amaliyotlar va mavjud muammolarni o'rganishga qaratilgan.

**Asosiy qism:** Musiqa ta'limi bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pianino mashg'ulotlari bolalarning intellektual, emotsional va psixofiziologik rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Fortepiano cholg'usi o'zining keng diapazoni va ko'p ovozlilik imkoniyati bilan musiqa ta'limida yetakchi o'rin egallaydi. Avvalo pianino mashg'ulotlari bolalarning kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Nota yozuvini o'rganish, ritmni his qilish va musiqa asarlarini yod olish jarayoni xotira diqqat va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam musiqa bilan shug'illanuvchi bolalarda anolotik tafakkur va muommilarni hal qilish ko'nikmalari yuqori darajada shakllanadi.

Pianino chalish jarayoni bolalarning emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqa orqali bola o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ichki kechinmalarni boshqarish va stressni kamaytirishga yordam beradi. Sahna chiqishlari esa

bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy moslashuvni rivojlantiradi. Pianino mashg'ulotlari jismoniy va psixomotor rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Ikkalaqo'l bilan bir vaqtda turli harakatlarni bajarish miya faoliyatini faollashtiradi va koordinatsiyani yaxshilaydi. Barmoqlarning nozik harakatlari rivojlanishi esa yozuv va boshqa amaliy faoliyatiga ham ijobiy natijalar beradi. Bundan tashqari musiqa ta'limi bolalarda estetik did va ijodiy tafakkurni shakllantiradi.

Turli janrdagi musiqa asarlarini o'rganish orqali ular san'atni chuqurroq anglay boshlaydi, bu esa umumiy madaniyat saviyaning oshishiga xizmat qiladi. Pianino ijrosi jarayonida improvizatsiya va interpretatsiya elementlari bolalarning mustaqil fikrlash va inodig yondashuvini rivojlantiradi. Pianino mashg'ulotlari bolalarning aqliy, emotsional va jismoniy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatib, shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois musiqa ta'limini erta yoshdan boshlab tashkil etish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Fortepiano musiqa ta'limining eng universal cholg'ularidan biri xusoblanadi. U quyidagi sabablar tufayli o'quv jarayoniga keng qo'llaniladi. Pianino chalishda bola bir vaqtning o'zida notani o'qiydi va uni amalda ijro etadi. Bu esa musiqa savodxonligini tez rivojlanishiga olib keladi. Pianino orqali bir nechta tovushlarni bir vaqtda ijro etish mumkin, bu esa eshitish qobiliyatini boyitadi.

Individual mashg'ulotlar uchun fortepiano cholg'u asbobi juda qulay hisoblanadi. Ko'plab musiqachilar pianino asosiy tauyorgarlik vositasi sifatida o'rganadi.

**Xulosa:** Yuqoridagilardan kelib chiqib, pianino mashg'ulotlari bolalar rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash muhim. U bolalarning aqliy, emotsional va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli musiqa ta'limini, xususan fortepiano mashg'ulotlarini erta yoshdan boshlab tashkil etish maqsadga muvofiq. Pianino mashg'ulotlarini bolalarning aqliy, emotsional va jismoniy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatib, ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar psixologiyasi bo'yicha ilmiy manbalar
2. Abdullayeva M. Musiqa ta'limi metodikasi.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2020
3. Musiqa pedagogikasi asoslari
4. Azizxodjayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat- Toshkent TDPU, 2018
5. Qodirov R.(2005) Musiqa psixologiyasi.